







Nogironligi bor insonlar mashinasi uchun benzin sotib olish xarajatlarini qoplash tartibi




Illyustratsiya	Oson matn
	Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 30-oktyabrdagi 223-sonli qaroriga koʻra, ayrim insonlarning mashinasi uchun **benzin sotib olishda toʻlovning bir qismi davlat tomonidan har oyda** toʻlab beriladi.
	**Benzin sotib olish uchun pul toʻlab beriladigan insonlar:** • urushda qatnashgan insonlar • urush koʻrgan qariyalar • ishi sabab kasal boʻlgan birinchi va ikkinchi guruh nogironligi berilgan insonlar • bolalikdan birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bor insonlar.
	Sen benzin puli uchun murojaat qilmoqchi boʻlsang: • Oʻzbekistonda doimiy yashaydigan boʻlishing • Yengil avtomobiling bor boʻlishi • Yengil avtomobildan oʻzing foydalanishing kerak boʻladi.

	**Yengil avtomobil –** bu har xil turdagi mashinalar**,** motoaravacha va mototsikllar.
	Vazirlar mahkamasi komissiyasi senga bir oyda 20 (yigirma) litr benzin uchun pul beradi.
	Benzin uchun beriladigan pul **benzinning eng ko‘p turining o‘rtacha narxidan** kelib chiqib hisoblanadi.
	Sening mashinang uchun 1 oylik beriladigan benzin puli 1 litr uchun 5 982 (besh ming to‘qqiz yuz sakson ikki) so‘m.
	20 litr uchun – 119 640 (bir yuz o‘n to‘qqiz ming olti yuz qirq) so‘m.

	Benzin sotib olishga imtiyoz olishing uchun sen pensiya va nafaqalarni belgilaydigan tashkilotga hujjatlaringni berishing kerak.
	Sen pensiya va nafaqalarni belgilaydigan tashkilotga topshirishing kerak bo‘lgan hujjatlar: ● Ariza (ariza namunasi) ● sening pasporting yoki ID-kartang ● sening nogironlik hujjating va imtiyoz beruvchi boshqa hujjatlaring ● sening mashinang sug‘urtasi
	**Sug‘urta –** bu avariya, tosh ko‘chishi, yer qimirlashi kabilar ro‘y berganda zarar qoplab berilishi.
	Senda sug‘urta bo‘lsa, sug‘urta vaqti tugashi bilan, benzin uchun to‘lov puli ham to‘xtatiladi.
	Sen sug‘urtani yangilab yana ariza berishing mumkin.

	Benzin oylik pulini olish uchun bergan arizang va kerakli hujjatlaring 5 kunda ko‘rib chiqiladi.
	Ariza berganingdan keyin sening ma’lumotlaring **Ichki ishlar** vazirligining **ma’lumotlar bazasidan** olinadi.
	**Ma’lumotlar bazasi –** bu kerakli ma’lumotlar yig‘ilgan joy.
	Sening ma’lumotlaring ko‘rib chiqiladi va benzin uchun senga oylik pul **berish** yoki **bermaslik** haqida ichki ishlar vazirligi qaror chiqaradi.
	Pensiya jamg‘armasining qisqa telefon raqami: **1271**

	Sening benzin puli uchun bergan arizang: ● Sen benzin olish uchun imtiyozli bo‘lmasang ● mashinang **yengil avtomashina** turiga kirmasa ● mashinangni ishlash holati tekshirilmagan bo‘lsa ● mashinang **sug‘urtasi** boshqalar nomiga rasmiylashtirilmagan bo‘lsa ● kerakli hujjatlarni topshirmagan bo‘lsang arzang rad etiladi.
	Sening arizang rad etilsa, hujjatlaringni to‘g‘rilab qaytadan murojaat qilishing mumkin.
	Sening: ● yashash joying o‘zgarsa ● mashinang sotilsa ● sug‘urta boshqa insonlar nomiga tayyorlansa ● yo‘l qoidasini buzganing uchun haydovchilik guvohnomangni oldirib qo‘ysang ● benzin uchun oylik puli to‘laydigantashkilotga **xabar berishing shart.** ● Shundan keyin senga benzin **puli berish to‘xtatiladi.**

	Agar benzin uchun oylik pul oladigan inson **vafot etsa**, bu haqida tashkilotga uning **qarindoshlari** xabar berishi kerak.
	Sening arizang **rad etilsa**, rad etish sabablarini to‘g‘rilab yashash joyingdagi **pensiya va nafaqalarni tayinlash tashkilotiga** qayta murojaat qilishing mumkin.
	Yoki arizang rad etilganda **davlat xizmatlari markazi** orqali ham qayta ariza berishing mumkin.
	**Benzin uchun oylik pulini** pensiya va nafaqalarni tayinlaydigan tashkilot pensiya va nafaqa pulini berish vaqtida **alohida ro‘yxat bo‘yicha beradi.**
	“O‘zbekneftgaz” tashkiloti **har oyning 10-sanasigacha benzin uchun** 1 oylik to‘lov pulni vazirlik va tashkilotlarning bank hisobiga o‘tkazadi.

	Vazirlik va tashkilotlar esa kelgan **pulni** benzin olishda **imtiyozi bor insonlarga** yetkazadi.